

OMON MUXTOR ROMANLARIDA EPIGRAF

Yuldosheva Umida

*O‘zbekiston Respublikasi Sirdaryo viloyati
Guliston davlat universiteti “Adabiyotshunoslik”
yo‘nalishi tayanch doktoranti
(+998994403996)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada epigraf atamasining kelib chiqishi, Omon Muxtor romanlarida epigrafning mohirona qo‘llanganligi haqida ma‘lumotlar berilgan. Omon Muxtor romanlarida she‘rlar, qo‘shiqlar, rivoyatlardan parchalar va latifalardan epigraf sifatida keng foydalangan.

Kalit so‘zlar. Epigraf, ustki yozuv, she‘riy parcha, hikmatli so‘z, maqol sarlavha, syujet unsurlari.

ЭПИГРАФ В РОМАНАХ ОМОН МУХТОРА

Абстрактный. В данной статье представлена информация о происхождении термина эпиграф, умелом использовании эпиграфа в романах Амона Мухтара. Амон Мухтар широко использовал стихи, песни, отрывки из сказок и анекдоты в качестве эпиграфов в своих романах.

Ключевые слова. Эпиграф, надстрочный индекс, стихотворный отрывок, мудрое изречение, заглавие пословицы, элементы сюжета.

EPIGRAPH IN OMON MUKHTOR'S NOVELS

Abstract. This article provides information about the origin of the term epigraph, the skillful use of epigraph in the novels of Amon Mukhtar. Amon Mukhtar widely used poems, songs, excerpts from narrations and anecdotes as epigraphs in his novels.

Keywords. Epigraph, superscript, poetic passage, wise saying, proverb title, plot elements.

Epigraf – asar mazmunini o‘zida jamlagan, unda ilgari surilgan g‘oya haqida tushuncha beradigan badiiy unsurlardan biridir. Asariga munosib eigraf tanlay bilish ham yozuvchining mahoratini ko‘rsatib beradi. Avallo, “epigraf” so‘zi atama sifatida qanday shakllanligiga oydinlik kiritaylik. Adabiyotshunos olim H. Umurovning ma‘lumot berishicha: “Epigraf (yun. yepigraphe – yozuv). Dastavval, u qadimgi Gretsiyada qabr toshlariga yozilgan she‘rlarning janri bo‘lgan” [1-137]. Epigraf so‘zining ma‘nosi ham “Ustki yozuv” degan ma‘noni anglatib, dastlab faqat qabr toshari ustidagi qisqa yozuvlarni anglatgan. Ammo keyinchalik adabiyotda sarlavhadan keyin qo‘yilib, asar mazmunini o‘zida aks ettirgan yozuvlar ham epigraf deb yuritiladigan bo‘ldi. Ko‘pincha, epigraf uchun ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lgan maqol, she‘riy parcha, hikmatli so‘z kabilar tanlab olingan. “Epigraf badiiy jihatdan

samarali va ijod amaliyotida ancha keng tarqalgan ramka unsurlaridandir. Mohiyatan epigraf ham ko‘chirma bo‘lib, o‘quvchi ommaga tanish va e‘tiborli manbalar (xalq og‘zaki ijodidan, mashhur adabiy asarlar, atoqli shaxslarning so‘zlari va b.)dan olingan gaplarni sarlavhadan keyin keltirishdan iboratdir” [2-147].

Asarda epigraf bo‘lishi shart yoki bir asar uchun bitta epigraf kifoya degan tushuncha yo‘q. “... o‘rinli ishlatilgan epigraf asar kompozitsiyasida muhim ahamiyat kasb etar ekan. Ammo bundan har bir asarda epigraf bo‘lishini talab qilish noto‘g‘ridir. Chunki, epigraf ishlatish yoki ishlatmaslik yozuvchining niyatiga, xohishiga, usubiga bog‘liq erkin ijodiy ishdir” [3-147].

Asarga epigraf qo‘llash mutlaq ixtiyoriy masala va uni nechta qo‘llaydi bu ham muallifning xohishi. “Keyinchalik va hozir ham xalq og‘zaki ijodi yoki yozma adabiyotdan olingan hikmatli so‘z, maqol, parcha yoki iboralarning boshqa bir asar (uning sarlovhasidan keyin, qismi va bobining boshlanishi)da bittasini yoki bir nechtasini keltirilshiga epigraf atamasi ishlatiladi. Epigraf hamma asarlarda bo‘lavermaydi, lekin u doimo qisqa, sodda bo‘lishi, ibratli mazmunni o‘zida jamg‘arishi lozim. Eng asosiysi, muayyan asarning mazmunini o‘zida tashishi yoki shu mazmun qanday bo‘lishiga urg‘u berishi (ba‘zida isbotlashi) talab qilinadi” [1-137].

Omon Muxtor romanlarini deyarli epigrafsiz holatda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Muallif bir asarga bitta epigraf bilan cheklanib qolmaydi. Masalan:

“Ko‘zgu oldidagi odam” romanida muallif sarlavhadan keyin bir nechta epigrafni ketma-ket qo‘llagan. Bu epigraflarning manbalari esa turli xildir. Birining muallifi aniq, ma‘lum va mashhur xalq shoiri, birining muallifi esa noma‘lum – xalq qo‘shig‘i:

1. “Ming sir bor tuproqda” (Oybek) [6-164].

2. “Mendan nima istaysan, ko‘zgu,
Senga nima kerak!?” (Eski bir qo‘shiqdan) [6-164]

Asarlaridagi har bir bo‘lim yoki bob uchun ham alohida epigraflar qo‘llagan holatlarini ham uchratishimiz mumkin.

Muallifning “Ming bir qiyofa” romanini uch hikoyatdan iborat bo‘lib, bu hikoyatlarning har biri uchun alohida-alohida epigraflar qo‘llagan. Birinchi “Tutqun” hikoyati:

“Ostonangda tuproq bo‘ldim, vale

Demadingki, xokisorim qani?..” (Qo‘shiqdan) [6-11]

Ikkinchisi “Olisdagi odam” hikoyati:

“Vassalar tergan bilan toming sira yopilmasin,

Men yomon bo‘lsam agar, hech loyig‘ing topilmasin...” (Yana bir qo‘shiqdan) [6-69].

Uchinchi “Afandining bolaligi” hikoyati:

“Mening ko‘nglim sen bilan,

Sen ketasan kim bilan!..” (Boshqa bir qo‘shiqdan) [6-123].

Odatda, “Ba’zi yozuvchilar asarni yoki uning qismlarini boshlashdan oldin boshqa asarlardan, hikmatli soʻzlardan, xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan qisqa parcha keltiradilar. Bu parcha epigraf deb ataladi. Xuddi asar sarlovhasi kabi epigraflarda ham uning mavzusi va gʻoyaviy yoʻnalishiga maʼlum darajada ishora qilinadi” [4-97]. Ammo Omon Muxtor asarlarida har doim ham qisqa parchalarni keltiravermagan. Uning ikki banddan iborat sheʼriy epigraflarni ham qoʻllaganligini koʻrishimiz mumkin. “Tepalikdagi xaroba” romani 4 koʻrinishdan iborat boʻlib birinchi koʻrinish “Tun bilan tong” deb nomlanadi. Ushbu koʻrinish uchun muallif Gʻafur Gʻulomning ikki banddan iborat Navoiy gʻazaliga muxammasidan parchani tanlab oladi:

“Mening qarogʻimu oning jamoli tun bilan tong,
Mening zavolimu oning kamoli tun bilan tong
Mening kuyuk mahim, oning hiloli tun bilan tong,
Mening firoqimu oning visoli tun bilan tong,
Bu nav dahrda yoʻq ehtimoli tun bilan tong.

Nechun tushuntira oldim buni gumon eliga,
Hamisha ishqni qilguvchi imtihon eliga,
Ki birni ikki deyib boʻlimgay zamon eliga,
Gʻarib, zulfu yuz ermas bu un jahon eliga,
Koʻrinmamish bu ikkining misoli tun bila tong...” [6-304]

Baʼzi asarlarining har bir boʻlimi uchun alohida va bir nechta epigraflar ham qoʻllagan. Bu, albatta, yozuvchuning tafakkuri va bilimining boyligidan darak beradi. Muallifning “Tepalikdagi xaroba” asari toʻrt koʻrinishdan iborat bolib, ikkinchi koʻrinish “Koʻngil qushi” deb nomlangan va asarning bu qismi uchun ketma-ket ikkita epigraf olingan:

1. “Visol avji biyik, ey koʻngil qushi, sen past...” (A. Navoiy) [6-326].
2. Soʻrogʻingda biyobonlar kezib, be pou sar yurdim,
Quyundek charx urib, jismim gʻuborin koʻkka sovurdim,
Sen azm aylab ketargʻa, men boʻlib bemor, qaygʻurdim,
Koʻngul – jon birla boʻldiham-rahing, men – dard ila turdim,
Senga – jon birla koʻnglumni, seni – tangriga topshurdim...

Seni topmoq base mushkul koʻrindi – justijoʻ birla,
Firoqing dardigʻa taskin tilarman – guftigoʻ birla,
Gahi paymona birla shugʻl etib, gohi – sabu birla,
Koʻngil tinmasqa qolmish erdi, hr nav, orzu birla,

Rizo ko'yig'a to qo'ydim qadam – ko'nglumni tindurmadim... (Nodira, A.Naoiy g'azaliga muxammasdan) [6-326].

Uchinchi ko'rinish "Xoh inon, xoh inonma" sarlavhasi ostida bo'lib, ushbu ko'rinish uchun esa uchta epigraf qo'yilgan:

1. Barcha topilur – bizga kerak yor topilsa... (Lutfiy) [6-353].

2. Bir quyosh hajrinda tunde – ro'zg'orim tiyradur;
Tong emas, gar tun kabi – motam tutib, yig'lormen... (A.Navoiy) [6-353].

3. Ko'zlarim vasl intizori birla bo'ldi chor-chor,
Pechi zulfi yodida, men go'yiyo bemor mor,
Bora-bora, bo'ldi hajr anduhi – kun, dushvor vor,
Do'stlar, men telba ahvolig'a yig'lang, zor-zor,
Kim solodur gah-gah o't ko'nglim'ga tushgan xor-xor... (Zavqiy, A.Navoiy ga'zazliga muxammas) [6-353].

To'rtinchi ko'rinish "Ism jinnisi" uchun ham uchta epigraf olingan:

1. Junun vodiysig'a moyil – ko'rarmen joni – zorimni,
Tilarmen bir yo'la buzmoq – buzulg'on ro'zg'orimni... (A. Navoiy) [6-407].

2. Uzoq bir joyda, tinmay
To'lib nola qilarnay...

Ammo uni chalar kim?! –

Buni men bilarman;

Va bilar – qalbim! (Robindranat Tagor) [6-407].

3. Boisin – gar so'rasangiz, do'stlar, - dili vayronligim,

Shunchalar sarsonligim; ko'yida sargardonligim;

Yori – xurshid yuzligim; dildori – moh-tobonligim;

Husniga hayratdin o'ldi barcha besomonligim,

Men kim-u, somon?! – chu ortar har nafas hayronligim... (Sobir Abdulla A.Navoiy g'azaliga muxammas) [6-407].

Nafaqat nasriy asarlar, balki nazmiy asrlarga ham epigraf qo'llash mumkin. "Mumtoz she'riyatimizda epigraf qo'llash odati bo'lmagan, bu narsa yangi o'zbek she'riyatida urfga kirdi" [2-147].

Asar epigraf mohiyatini ochib berish uchun emas, epigraf asar mohiyatini yaxshiroq tushuntirish uchun qo'llaniladi. "Xolbuki, bu epigraf hikoyaga, hikoyada tasvirlangan jamiyatga, ana shu jamiyatning a'zolariga tegishlidir" [1-113]. "Demak, epigraf asar g'oyasini, unda tasvirlangan voqealarni kitobxon aniqroq va to'liqroq tushunishiga olib keladi" [4-98]. Omon Muxtor romanlariga ko'p hollarda eski qo'shiqlardan va g'azallardan epigraf sifatida kiritib o'tgan. Ba'zi holatlarda esa, latifa

va rivoyatlarni ham epigraf qilib olgan. Uning “Ayollar mamlakati va saltanati” (Asr romani) romadida ustoz yozuvchi Abdulla Qahhorning:

“– Nega meni boshimni qashlayapsan?!”

– O‘zimni boshim deb o‘ylabman...” [7-77] degan eski latifasini qo‘llagan.

“Fuu” romanida esa:

“...Ustida janda, boshida kuloh – bir to‘p qalandarlar: “Haq do‘st, yo Olloh!” – degancha bozorni aylanib, karvonsaroyga bormay, to‘g‘ri qabristonga borib, tamaddi qila boshlashdi. Birov, nega bunday qildilaring, deb qiziqqanida, ular kulishdi:

- Hammaning ham axiyr keladigan joyi shu...” [7-5] – qisqagina rivoyat keltirilgan.

Asarda epigraf suyugetdan tashqari unsur hisoblanadi. U asar voqealariga bevosita emas bilvosita ta’sir qiladi, uni oydinlashtiradi. “... asar to‘qimasidagi ayrim unsurlar syujet tarkibiga kirmasligi ham mumkin (sarlavha, epigraf, qisqartma epizod...)” [3-155]. Ammo asarning badiiyatga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Omon Muxtor badiiy ijodda mutlaq erkin shaxs edi. U qoliplar qarmay, qanday tasavvur qilsa shunday, qanday xohlasa shu holatda yozgan. U asarlari uchun lozim deb bilgan barcha epigraflarni hajmidan qat’iy nazar kiritgan. Bu asarning saviyasini oshirishga xizmat qilgan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H. Umurov “Adabiyotshunoslik nazariyasi”. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
2. D. Quronov “Adabiyot nazariyasi asoslari”. T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
3. T. Boboyev “Adabiyotshunoslik asoslari”. T.: O‘zbekiston, 2002.
4. E. Xudoyberdiyev “Adabiyotshunoslikka kirish”. T.: Sharq nashriyoti, 2008.
5. uz.m.wikipedia.org
6. O. Muxtor “To‘rt tomon qibla”. T.: Sharq, 2000.
7. O. Muxtor “Ayollar mamlakati va saltanati”. T.: Sharq nashriyoti, 1997.